

paydalı qasiyetlerin har tárepleme uyrenemiz. Usı tema arqalı oqıwshılar ximiyanı medicina, biologiya, kundelikli turmis, sanaat penen tıǵız baylanıslıǵın uyrenedi [5:67-69]. Temanı tolıq tusındırıwde interaktiv usıllardan Awa-Yaq

usılı, Venn diagramma, T-keste, Formula tabıw, Konseptual keste siyaqlı interaktiv usıllardan paydalanıp sabaq ótkenimizde oqıwshılardı ximiyaga qızıqtırıw, ximiyalıq formulalardı yadta saqlaw qasiyeti qalıplesedi.

Ádebiyatlar

1. Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2020-jıl 12-avgusttaǵı «Ximiya hám biologiya jónelislerinde úzliksiz bilimlendiriw sıpatın hám ilim-pán nátiyjeliligini asırıw is-ilajları haqqında»ǵı PQ-4805-sanlı Qararı.
2. Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2020-jıl 29-oktyabrdeǵı «Ilim-pándi 2030-jılǵa shekem rawajlandırıw koncepciyasını tastıyıqlaw haqqında»ǵı PP-6097-sanlı Pármanı.
3. Abdusamatov A., Mirzayev R., Ziyayev R. Organik kimyo. – Toshkent: «O‘qituvchi», 2004.
4. Ixtiyarova G.A., Bekchanov D.J., Ahadov M.Sh. Kimyoni o‘qitishda zamonaviy texnologiyalar. – Toshkent: 2020.
5. Abdisattarova E., Jarekeyeva D., Sultanov M. Ximiya sabaǵında integraciyalasqan oqıtıw. // «Ilim hám jámiyet», 2024 (№2/2). 67-69-b.

REZYUME. Maqolada organik kimyo fanidan “Spirtlar” mavzusini interfaol metodlardan foydalanib o‘qitishning qisqacha ta’rifi berilgan. Maktabda organik kimyo kursini chuqurroq o‘qitishda interfaol metodlardan “Awa-Yaq”, Formulalarni topish, T-jadval, Venna diagrammasi “Spirtlar” mavzusiga oid misollar bilan keltirilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье дается краткое описание преподавания темы “Спирты” по органической химии с использованием интерактивных методов. При углубленном изучении курса органической химии в школе интерактивные методы “Awa-Yaq”, нахождение формул, T-таблица, диаграмма Венна приведены с примерами по теме “Спирты.”

SUMMARY. The article provides a brief description of teaching the topic “Alcohols” in organic chemistry using interactive methods. In the in-depth study of the organic chemistry course at school, interactive methods such as “Awa-Yaq”, Finding Formulas, T-Table, Venn Diagram are presented with examples related to the topic “Alcohols.”

JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA HARAKATLI O‘YINLARDAN FOYDALANISH USULLARI

J.A.Alimov – dotsent

Andijon davlat pedagogika instituti

Tayanch so‘zlar: jismoniy rivojlanish, harakat, ko‘nikma, malaka.

Ключевые слова: физическое развитие, движение, умения, компетентность.

Key words: physical development, movement, skills, competence.

Kirish. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim tizimidagi islohotlar, innovatsion o‘zgarishlar, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, ta’lim sifat va samaradorligini oshirish yo‘lida ta’limtarbiya jarayoni ishtirokchilari uchun zaruriy hamda yetarli shart-sharoitlarni yaratib berilishi oliy o‘quv yurtlari rahbarlari va professor-o‘qituvchilariga ham o‘ziga xos katta mas’uliyat yuklaydi. Yangi O‘zbekiston ta’lim tizimini tubdan o‘zgartirish, uni xalqaro standartlarga integratsiyalash, mehnat bozori talablariga mos keluvchi malakali kadrlarni tayyorlash hamda Uchinchi Renessans g‘oyasini amalga oshiradigan yangi avlodni voyaga etkazish maqsadida katta islohotlar amalga oshirilmoqda.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida ta’limtarbiya tizimini tubdan isloh etilayotgani ham ana shu ulug‘vor vazifani amalga oshirish yo‘lidagi muhim qadamdir. Xuquqiy demokratik davlatimiz, ochiq fuqarolik jamiyatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri sanalmish ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi – bu jarayonning sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlar majmuasidan iborat. Shu boisdan, mamlakatimiz mustaqilligidan so‘ng yosh avlodning tarbiyasiga, sog‘ligiga aloxida e’tibor qaratila boshlandi [1].

Jismoniy tarbiyaga e’tiborni kuchayganligini umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilari o‘rtasida «Umid nihollari», texnikum va akademik litsey tinglovchilari ishtirokida «Barkamol avlod», oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida «Universiada» sport musobaqalari tashkil etilgan.

Natijada sportning ko‘plab turlari bo‘yicha O‘zbekistondan olimpiada va jahon chempionlari yetishib chiqmoqda. Maktablarda va mahallalarda ham sport musobaqalari tashkil etilmoqda. Maktab o‘quvchilarida ahloqiy fazilatlarini milliy harakatli o‘yinlar orqali shakllantirish jamiyatimizdagi madaniy-ma’rifiy soxolarda ilgari bosilgan qadam bo‘lib xisoblanadi. Milliy tavsifga ega bo‘lgan jismoniy mashqlar, sport va harakatli o‘yinlarning xilma-xilligi ularni o‘quv-tarbiya jarayonining juda ko‘p sohalarida qo‘llash imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili. Harakatli o‘yinlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun muhim xisoblanadi. O‘yinlar xayotdagi to‘siqlarni yengish ularning qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish bilan bog‘lik bo‘lgan jismoniy mashqlarni o‘z ichiga oladi. Har xil obrazlarga taqlid qilingan o‘yinlarni o‘ynab borish jarayonida bolalarda o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyati, faol harakat malaka va ko‘nikmalari shakllana boradi. Bundan tashqari o‘yinlar bolalarning jismoniy barkamol bo‘lishlari uchunгина emas, balki aqliy va ahloqiy jixatdan tarbiyalash uchun xam muhim ahamiyatga ega. Ko‘plashib o‘ynaladigan o‘yinlarda bolalar maqsadga erishish uchun farosatini, qat’iyatini ko‘rsatishi, jamoa oldida o‘zining emas, balki o‘rtoqlarining xatti-harakatlari uchun xam javobgarlik hissini sezadigan bo‘lishi kerak [3].

Pedagogik, psixologik, sotsiologik, axloqshunoslik, jismoniy tarbiya o‘qitish metodikasiga oid adabiyotlar tahlili o‘quvchilarga jismoniy tarbiya berish va shu o‘rinda jismoniy mashqlar tizimi hamda harakatli o‘yinlardan

foydalanish masalasiga doir turli qarashlar mavjudligini ko'rsatdi.

Boshlang'ich sinf o'quvchisining harakatli o'yindagi erkinligi va mustaqilligi quyidagi xolatlarda namoyon bo'ladi: a) o'yin yoki uning mazmunini tanlashda; b) boshqa bolalar bilan ixtiyoriy birlashishda; v) o'yinga kirish va chiqishning ixtiyoriyligida va boshqalar. Turli ko'rinishdagi o'yinlarda boshlang'ich sinf o'quvchisining erkinligi va mustaqilligi turlicha namoyon bo'ladi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisi harakatli o'yinlarni tashkil qilish va o'tkazishda quyidagilarni nazarda tutishi lozim. O'quvchilarning jismoniy barkamolligi, salomatligining yaxshilanishi, chiniqishiga, tana a'zolari va umumiy ish qobiliyatining o'sishiga yordam berish. O'quvchilarda har xil sharoitlarda erkin harakat qila olish imkonini beradigan bilimlar va kerakli harakat malakalarini hosil qilish. O'quvchilarda hayotiy faoliyatda yordam beradigan aqliy va irodaviy sifatlarni tarkib toptirish. O'quvchilarni turli o'yinlar va jismoniy mashqlarga qiziqtirish, rejimga rioya qilishga odatlantirish. O'quvchilarda harakatli o'yinlarni mustaqil holda tashkil etish va o'tkazish uchun zarur bilim va malakalar xosil qilish.

Harakatli o'yinlarni o'tkazishda o'qituvchining tashkilotchi va tarbiyachi sifatidagi vazifasi juda mas'uliyatlidir.

O'yinlar avvalo to'g'ri tanlanishi, bolalarda o'rtoqlarcha yordam, jamoatchilik, vatanparvarlik xislarini ijtimoiy-foydali mehnatga ongli munosabatni shakllanadigan tarzda tashkil qilinishi va o'tkazilishi kerak [4].

O'yinni to'g'ri tanlash va maqsadga muvofiq yo'sinda o'tkazish juda muhim ahamiyatga ega. Ammo o'yin hamma vaqt ham tarbiyaviy vazifalarni hal qilavermaydi. Tarbiya sohasida yaxshi natijaga erishish uchun harakatli o'yinlar tarbiyaviy tashkil qilinishi va o'tkazilishi kerak. O'yin rahbari bolalar jamoasini yaxshi bilishi, har bir o'yinning mazmuni va qoidalarini bilan mufassal tanishishi, yuksak pedagogik maxoratga ega bo'lishi lozim. Shundagina u harakatli o'yinlardan ko'zlangan ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarga erisha oladi.

Bolalar o'yin davomida o'z fe'l-atvori va shaxsiy xususiyatlarini namoyish qiladilar. Bundan esa o'qituvchi ularning turli odatlarini, salbiy va ijobiy xususiyatlarini bilib olishi, tegishli tadbirlarni belgilashi, o'yinni muayyan yo'nalishga solib, ularda sofdillik, mardlik, do'stlik sifatlarini jamoadagi o'z burchini xis qilishni tarbiyalashi mumkin. Shu bilan birga, u bolalarga o'yin qoidalarini buzmaganda ijobiy tashabbus ko'rsatishda har jihatdan yordam beradi.

Amaliy qism. O'qituvchi o'yinlarni o'tkazish jarayonida ta'limning didaktik prinsiplaridan foydalanishi va doimo ularni amalga oshirishga erishishi lozim. O'qituvchi o'quvchilarga har o'yinning mazmuni, vazifasi va qoidalarini tushuntirib beradi. Bu esa ularga o'yinga ongli munosabatda bo'lish, uni to'g'ri o'rganib olish, o'z xatolari va yutuqlarini to'g'ri tushunish va o'z harakatlarini o'rtoqlarining harakatlariga qiyoslab tahlil qilish imkonini beradi. O'quvchining o'yin yoki ayrim mashqlarni o'rganishda o'qituvchiga ko'r-ko'rona kelaverishi ham maqsadga muvofiq emas. O'qituvchi o'rgatadigan va o'quvchilar ongli ravishda bajaradigan harakatlar bolalarda

tashkilotchilik ko'nikmalarini tarbiyalashda yordam berishi kerak. Bunga o'yinni o'tkazish uchun o'quvchilardan hakamlar va ularning yordamchilarini tayyorlash yo'li bilan erishiladi. O'qituvchi bolalar bilan o'tkaziladigan o'yinlar biroz muayyan qiyinchiliklarni yengish bilan bog'liq bo'lishiga, o'yin jarayonida bajariladigan har bir vazifa amalga oshishiga erishishi va to'siqlar qanday zabt etilishiga ko'ra murakkablashtirib borilishi zarur. Bu ish bolalarni mexnatsevarlikka o'rgatadi, ulardagi iroda kuchini orttirib boradi [5].

O'qituvchi o'yinni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rishda uning aniq vazifalarini belgilab chiqadi. Bu vazifalar bolalarning yoshiga mos bajara oladigan bo'lishi kerak. O'yinni tashkil qilish va o'tkazishda o'quvchilarga iloji boricha tashabbus ko'rsatib, faol qatnashishga rag'batlantirish juda muhimdir.

Bolalar ijodiy faollik ko'rsatib o'ynasalar, o'yinlar ularda tashkilotchilik malakasini o'stiradi. Ko'zlangan maqsadga erishish uchun do'stiga yordam berish, o'z holicha yoki o'rtoqlari bilan darhol bir qarorga kelishi - ijodiy tashabbuskorlik hisoblanadi. Agar bolalar o'yinni ilgari o'zlashtirgan bo'lsalar, o'yin paytida ularning faolligi yanada ortishi mumkin.

O'yin paytida bolalarning faollik ko'rsatishi o'qituvchining ana shu o'yinni o'tkazishga qanday tayyorlanishiga ham bog'liq bo'ladi. o'qituvchining o'zi o'yinni aniq va yaqqol tasavvur qilishi, o'yin paytida o'yinlovchilarning o'zaro munosabatlarini yaxshi tushunishi lozim.

O'yin rahbari keyinchalik o'yinni qanday o'zlashtirishlariga qarab, ularga sardorlik, hakamlilik qilish ishlarini topshirishi va bolalar o'yinga uyushqoqlik bilan qatnashadigan bo'lganlaridan so'ng, ular orasidan o'ziga yordamchilar tayinlashi kerak. Shunda ham bolalar o'yinini rahbarning o'zi kuzatib turmog'i lozim. O'yinni obrazli qilib tushuntirish, eng muhim omillardan sanaladi. Bu ish ayniqsa, mazmunli o'yinlarni so'zlab berishda g'oyat zarur bo'lib, o'yin qatnashchilari o'z rollarini to'g'ri bajarishlarida yordam beradi. O'quvchilar o'yin mazmunini puxta o'zlashtirishlari uchun raxbar og'zaki tushuntirishni amalga ko'rsatishi bilan, ya'ni o'yinning ayrim harakatlarini bajarib ko'rsatish bilan olib borishi lozim. O'yinning qoidalarini tushuntirishda, harakatlarni ifodalab berishda ko'rsatmali qo'llanmalardan foydalanishda uning aniq vazifalarini doimo nazarda tutishi zarur [6, 7].

O'yinlarni rejalashtirishda ularning mazmuni va bog'liqligini xam unutmaslik, muayyan o'quvchilarni jismoniy tarbiyalash vazifalariga muvofiqligini hisobga olish kerak. Harakatli o'yinlar metodik jihatdan to'g'ri o'tkazilganda bolalar ayrim harakatlarda, u yoki boshqa mashqlarni bajarishda elementar harakat malakalarini egallashlari mumkin. U yoki boshqa malakalarni yaxshi egallashlari uchun, zarur bo'lgan jismoniy sifatlarni o'quvchilarda bu mashqlardan o'yin jarayonida foydalanish vaqtida rivojlantiriladi [7].

Xulosa. O'qituvchi o'yinni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rishda uning aniq vazifalarini belgilab chiqadi. Bu vazifalar bolalarning yoshiga mos bajara oladigan bo'lishi kerak. O'yinni tashkil qilish va o'tkazishda o'quvchilarga iloji boricha tashabbus ko'rsatib, faol qatnashishga

rag'batlantirish juda muhimdir. O'yinlarni rejalashtirishda muayyan o'quvchilarni jismoniy tarbiyalash vazifalariga ularning mazmuni va bog'liqligini xam unutmaslik, muvofiqligini hisobga olish kerak.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi «Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3031-sonli Qarori. / «O'zbekiston ovozi» gazetasi. – T.: 2017, 4-iyun.
2. Freeman C. Technology Policy and Economic Performance. – L.: «Printer Publishers», 1987. V 2. – P. 2-23.
3. Xojayev P, Rahimqulov K.D, Nigmanov B.B. Harakatli o'yinlar va uni o'qitish metodikasi. – Toshkent: «Cho'lpon», 2010. 130-b.
4. Ismoilova N., Abdullayeva D. Trening o'tish metodikasi. – Toshkent: «Fan va texnologiyalar», 2019. 96-b.
5. Юнусова Ю.М. Теория и методика физической культуры. Учебное пособие. – Тошкент: UzGos IFK, 2007. – С.312.
6. Готовцев П.И. Долголетие и физическая культура. – М.: «Физкультура и спорт», 1985. – С. 112.
7. Холодов Ж.К., Кузнецов В.С. Теория и методика физического воспитания и спорта: Учебное пособие для студента. // Высшее учебное заведение. 2-е изд., испр. И доп. – Москва: «Академия». 2001. – С. 481.

REZYUME. Maqolada o'quvchilarning jismoniy barkamolligi, salomatligining yaxshilanishi, chiniqishiga, tana a'zolari va umumiy ish qobiliyatining o'sishiga yordam berish. O'quvchilarda har xil sharoitlarda erkin harakat qila olish imkonini beradigan bilimlar va kerakli harakat malakalarini hosil qilish. O'quvchilarda hayotiy faoliyatda yordam beradigan aqliy va irodaviy sifatlarni tarkib toptirish. O'quvchilarni turli o'yinlar va jismoniy mashqlarga qiziqitirish, rejimga rioya qilishga odatlantirish. O'quvchilarda harakatli o'yinlarni mustaqil holda tashkil etish va o'tkazish uchun zarur bilim va malakalar hosil qilish va sportini rivojlantirish uchun amaliy tavsiyalar va strategiya taklif qiladi.

РЕЗЮМЕ. Цель статьи — помочь студентам улучшить свою физическую форму, здоровье и общую успеваемость. Развивать у учащихся знания и необходимые двигательные навыки, позволяющие им свободно действовать в различных условиях. Развивать у учащихся умственные и волевые качества, которые помогут им в жизнедеятельности. Заинтересовать учащихся различными играми и физическими упражнениями, приучить их к соблюдению режима. Предлагаются практические рекомендации и стратегии по формированию у учащихся знаний и умений самостоятельно организовывать и проводить подвижные игры, развивать свое спортивное мастерство.

SUMMARY. This article aims to help students improve their physical fitness, health, endurance, and overall performance. To develop in students the knowledge and necessary movement skills that will allow them to move freely in various conditions. To develop in students the mental and volitional qualities that will help them in life activities. To interest students in various games and physical exercises, to accustom them to following the regime. To develop in students the necessary knowledge and skills to independently organize and conduct active games and to offer practical recommendations and strategies for developing their sportsmanship.

XIMIYA SABAQLARIN OQITIWDA DIDAKTIKALIQ OYINLARDAN PAYDALANIW

L.G.Aymurzaeva – *texnika ilimleri boyinsha filosofiya doktori, docent*

Ajiniyaz atindagi Nókis mámleketlik pedagogikalıq instituti

Tayanch so'zlar: didaktik o'yn, aqliy hujum, dissotsiyatsiya, elektrolitlar, teoriya.

Ключевые слова: дидактическая игра, мозговая атака, диссоциация, электролиты, теория.

Key words: didactic, game, brainstorming, dissociation, electrolytes, theory.

Kirisiw. Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2022-jıl 21-iyundaǵı «Pedagogikalıq tálim sapasın asırıw hám pedagog kadrlar tayarlawshı joqarı oqıw orınları iskerligin jáne de rawajlandırıw is-ilajları haqqında»ǵı PQ-289-sanlı qararı negizinde, Pedagogikalıq tálim sapasın asırıw hám pedagog kadrlar tayarlawshı joqarı oqıw orınların sistemalı rawajlandırıw hám olarda basqarıw iskerligin jetilistiriw, aldınǵı shet el tájiriybelerin engizgen halda zamanagóy tálim dástúrlerin islep shıǵıw, joqarı qánigeli professional kadrlar tayarlawdı jańa basqıshqa kóteriw, sonday-aq pedagogika tarawında tálim, ilim-pán hám ámeliyat uýǵınlıǵın támiyinlew maqsetinde tálim dástúrleriniń óz ara uýǵınlıǵın hám úziksizligin támiyinlew maqsetinde mektepke shekemgi, ulıwma bilim beriw, orta arnawlı hám professional tálimde paydalanılatuǵın sabaqlıqlar hám metodikalıq qollanbalardı pedagog kadrlar tayarlawshı joqarı oqıw orınlarına olardıń talapnamasına muwapıq pullıq tiykarında kórsetiw tártibin engiziw. Bilimlendiriw, ilim-pán hám islep shıǵarıw uýǵınlıǵın támiyinlew arqalı tálim sıpatın jaqsılaw, básekelesiwshe kadrlar tayarlaw,

ilimiy hám innovaciyalıq xızmetti nátiyjeli shólkemlestiriw hámde bul xızmetke tiyisli basqa hújjetlerde belgilengen wazıypalardı ámelge asırıwǵa belgili dárejede xızmet qıladı [1].

Búgingi kúnde tálim mazmunın ózgartirip, onı dúnya tálim standartlarına muwapıqlastırıp aldınǵı pedagogikalıq texnologiyalarda qollanıwǵa itibar berilmekte. Óz nábwetinde bul oqıtıwshılar tárepinen zamanagóy tálim texnologiyaların tálim ámeliyatında aktiv qollanıwı, rawajlangan shet el tálimi ámeliyatında qollanılatuǵın zamanagóy texnologiyalardan xabardar bolıwı ushın birinshi gezekte joybardı jaratıw, studentler xızmetin diagnozlaw, pedagogikalıq texnologiyaların tálim ámeliyatında aktiv qollanıwı, rawajlangan shet el tálimi ámeliyatında qollanılatuǵın zamanagóy texnologiyalardan xabardar bolıwı ushın birinshi gezekte joybardı jaratıw, studentler xızmetin diagnozlaw, pedagogikalıq processti shólkemlestiriw hám onıń nátiyjeli ótiwin támiyinlew, sonday-aq talabalar xızmetin qadaǵalaw sıyaqlı shártler tiykarında támiyinlenedi [2].